

ONTOGENEZNING ILK BOSQICHLARIDA INSONNING PSIXIK RIVOJLANISHIGA XOS XUSUSIYATLAR

Andijon davlat pedagogika instituti

Vb dotsenti O‘.T.Vaxabova

Filologiya fakulteti talabasi

Abdumalikova Sabrina

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson psixikasining ontogenez jarayonidagi ilk bosqichlari yoritiladi. Bola psixikasi shakllanishida biologik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy va psixologik muhitning ta’siri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chaqaloqlik, go’daklik va ilk bolalik davrlarida sodir bo‘ladigan asosiy psixik o‘zgarishlar, ularning mexanizmlari hamda bola rivojiga ta’siri chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ontogenez, psixik rivojlanish, bola psixologiyasi, kognitiv faoliyat, sotsial muhit, individual shakllanish.

Annotation: This article discusses the characteristics of human psychological development during the early stages of ontogenesis. It examines the influence of biological, social, and psychological factors on the formation of a child's personality from infancy to early childhood. Special attention is given to the mechanisms of emotional development, cognitive functions, and social interaction.

Keywords: Ontogenesis, psychological development, child psychology, early age, cognitive activity, social environment, individual formation.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности психического развития человека на ранних этапах онтогенеза. Анализируется влияние биологических, социальных и психологических факторов на формирование личности ребёнка от младенчества до раннего детства. Особое внимание уделено механизмам эмоционального развития, когнитивным функциям и социальному взаимодействию.

Ключевые слова: Онтогенез, психическое развитие, детская психология, ранний возраст, когнитивная активность, социальная среда, индивидуальное формирование. Ontogenez, psixik rivojlanish, bola psixologiyasi, dastlabki yosh, kognitiv faoliyat, sotsial muhit, individual shakllanish.

Bolaning ona qornida paydo bolgandan tugllunga qadar boladigan o'zgarishlar homilaning prenatal ichki rivojlanishini tashkil etadi. Har bir davr ona qornida bolajak farzandning rivojlanish bosqichiga tegishli atama bilan nomlanadi. Ona qornida rivojlanish o'rtacha 38 hafta davom etadi va 3 bosqichga, ya'ni zigota bosqichi, embrion bosqichi va homila bosqichiga bolinadi.

Insonning psixik rivojlanishi — bu tug'ilishdan boshlab bosqichma-bosqich shakllanadigan murakkab jarayon bo'lib, u ontogenez bilan chambarchas bog'liq. Psixologiyada bu rivojlanish biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o'zaro ta'siri natijasida ro'y beradi. Bola hayotining ilk yillarida shakllanadigan psixik holatlar, kelgusida shaxs sifatida to'laqonli rivojlanishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

1. Chaqaloqlik davri (0–1 yosh)

Bu davr psixik rivojlanishning sensor-motor bosqichi hisoblanadi (J. Piajening nazariyasi). Bola bu bosqichda atrof-muhitni asosan harakat va sezgi orqali anglaydi. Muhim psixik xususiyatlar:

Shartli reflekslar shakllanishi: Ovoz, yorug'lik va harakatlarga javob berish.

Emotsional reaksiya: Onaning ovozig a jilmayish, begona odamni ajratish.

Tanish va notanish stimullarga farqlash qobiliyatining paydo bo'lishi.

Objekt doimiyligi tushunchasining shakllanishi (biror narsa ko'zdan yo'qolsa ham u mavjudligini anglash). Amaliy jihatdan, bu davrda bolaning mehr va e'tiborga bo'lgan ehtiyoji psixik barqarorlik uchun muhim hisoblanadi. Onalik hissi va bola bilan jismoniy aloqa bolaning xavfsizlik hissini shakllantiradi.

2. Go'daklik davri (1–3 yosh)

Bu davrda bola mustaqil harakat, nutq va ijtimoiy aloqalarni rivojlantiradi. Shuningdek: Nutqning rivojlanishi: passiv soʻz boyligi ortadi, keyinchalik aktiv nutq shakllanadi. Nutq orqali fikr bildirish va ehtiyojni ifoda etish koʻnikmalari shakllanadi. “Men” tushunchasi paydo boʻladi, bola oʻzini boshqalardan ajratishni boshlaydi. Irodaviy faoliyatning ilk shakllari kuzatiladi (tanlov qilish, rad etish). Psixologik jihatdan bu davrda “inoratsiya bosqichi” – yaʼni bola oʻz fikri, istagini mustaqil ifoda etishga intiladi. Lev Vygotskiy bu davrni “proksimal rivojlanish zonasi” deb ataydi – bola kattalar yordami bilan oʻz imkoniyatlaridan yuqori faoliyat koʻrsatadi.

3. Ilk bolalik davri (3–6/7 yosh)

Bu davrda bola fantaziya, mantiqiy tafakkur, axloqiy meʼyorlarni oʻrganadi. Asosiy xususiyatlar:

Tasavvur va xayol: Bola real va ixtiyoriy tasavvur qilishga qodir boʻladi.

Axloqiy rivojlanish: Yaxshi-yomon tushunchalari shakllanadi.

Sotsiometrik koʻnikmalar: boshqalarni tushunish, empatiya, jamoa oʻyinlarida qatnashish.

Oʻyin faoliyati: ijtimoiy rollarni oʻzlashtirish (shifokor, oʻqituvchi, ona rolida oʻynash). Erikson bu davrni "tashabbusga qarshi ayb hissi" bosqichi deb ataydi – bola faoliyat boshlashga intiladi, lekin uni toʻgʻri yoʻnaltirish zarur. Notoʻgʻri yoʻl tutish bolaning oʻziga ishonchini pasaytiradi.¹

4. Biologik va ijtimoiy omillar oʻrtasidagi uygʻunlik.

Ilk ontogenez bosqichlarida biologik yetilish (miya rivoji, reflekslar, sezgi organlari) psixik rivojlanish uchun asos boʻlsa-da, ijtimoiy muhit, yaʼni oila, tarbiya, muloqot — bola shaxsini toʻliq shakllantiradi. Bu jihatdan interaktiv muloqot, yaqinlik, sabr va qoʻllab-quvvatlov psixik barqarorlik uchun hal qiluvchi omillardir.

Reflekslar va ularning psixik rivojlanishdagi roli

¹ Вygотский Л.С. Мышление и речь. — М., 1978.

Yangi tugʻilgan chaqaloqda bir nechta asosiy tugʻma reflekslar mavjud boʻlib, ular hayotiy muhim funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi. Ular orqa miya va miya ustuni darajasida boshqariladi, ongli nazoratdan mustasnodir². Quyidagi reflekslar eng muhimlari hisoblanadi

Soʻrish refleksi — ogʻiz sohasiga tegilganida emishga harakat qiladi.

Tutish refleksi (Grasp reflex) — kafiga tegilsa, qoʻlini siqib oladi.

Qadam tashlash refleksi (Step reflex) — tik holatda oyoqlarni yerga tekkizilsa, yurishga oʻxshash harakatlar qiladi.

Moro refleksi — baland ovoz yoki qoʻrqish paytida qoʻl-oyoqlarini choʻzib, soʻngra yigʻadi.

Qidiruv refleksi — yonoqqa tegilganda ogʻiz tomon boshini buradi.

> Ushbu reflekslar chaqaloqning tashqi muhitga moslashuvi, ehtiyojlarni qondirish va asosiy psixik reaksiyalarning shakllanishida muhim rol oʻynaydi.

Taxminan 3–6 oylikda tugʻma reflekslar sekin-asta yoʻqola boshlaydi. Ularning oʻrnini shartli reflekslar va ongli harakatlar egallaydi. Bu oʻzgarish miya poʻstlogʻi rivojlanishining natijasidir. Masalan, bola oʻyinchoqqa intilishni ongli ravishda boshlaydi — bu motivatsion harakat boʻlib, idrok, eʼtibor va muvofiqlashtirishni talab qiladi.

Piaget nazariyasiga koʻra, reflekslar bolaning sensor-motor rivojlanish bosqichining boshlangʻich asosi hisoblanadi. Reflekslar orqali bola oʻz harakatlari va ular natijalari oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganadi — bu esa aqlning shakllanishi uchun muhim.

Inson psixikasining shakllanishi ontogenezning ilk bosqichlarida boshlanadi va bu jarayon bosqichma-bosqich, murakkab tizimli ravishda kechadi. Tugʻma reflekslar, sezgi aʼzolari faoliyati, emotsional aloqalar, til va nutqning paydo boʻlishi, shuningdek, oʻyin faoliyati bolaning ruhiy dunyosining rivojlanishida hal qiluvchi omillardandir. Har bir

². Hasanboyeva S.X. Bola psixologiyasi — Toshkent: TDPU, 2020.

rivojlanish bosqichi keyingisi uchun poydevor vazifasini bajaradi va ular o‘zaro uzviy bog‘langan.³Biologik omillar (genetik meros, asab tizimining holati), ijtimoiy muhit (oilalar, muloqot, tarbiya) va psixologik omillar (xotira, idrok, hissiyot)ning uyg‘un ta’siri bolaning har tomonlama sog‘lom shakllanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Выготский Л.С. "Мышление и речь" — М., 1978.
2. Пиаже Ж. "Речь и мышление ребенка" — М.: Просвещение, 1994.
3. Hasanboyeva S.X. Bola psixologiyasi — Toshkent: TDPU, 2020.
4. Эльконин Д.Б. "Психология игры" — М.: Педагогика, 1974.
5. Tadjiboyeva F.O. Bolalar va o‘smirlar psixologiyasi — Toshkent: “Ilm ziyo”, 2017.
6. Nurmatova D.S. Ilk yoshdagi bolalar bilan ishlash metodikasi — Andijon: ADPI, 2021.

³ Bowlby J. Attachment and Loss — New York: Basic Books, 1969.